

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA” LOGOPEDIYANING” O’RNI.

Toshpo‘latova Guliza Sherzod qizi
*Axborot texnologiyalari va menejment
universiteti talabasi*

Annotasiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bo‘lgan bolalar hayotida Logopediyaning o‘rni fanga oid tushincha va ma‘lumotlar nuqt kamchiliklari va ularning yechimi o‘z vaqtida aniqlab tuzatish xaqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *Logopediya, korreksiya, telefonlar, grammatika, nutq buzilishi, sonor, dislaliya, fonematika.*

Kirish: Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi va maktab yoshidagi bolalar hayotida Logopediyaning o‘rni beqiyos .Sababi shundaki:Ommaviy axborot vositalari va uyali aloqa vositalari. Jumladan “Telefonlar” bolajonlarimiz nutqiy rivojlanishiga bir muncha salbiy tasir ko‘rsatmoqda.Bolalarda nutq asosan kattalarga taqlid asosida yuzaga keladi .Endigina tevarak atrof haqidagi dastlapki tushunchalar paydo bo‘layotgan bolaga, uyali aloqa vositasi “Sensorli telefonlar”lar dagi keraksiz infarmatsiyalardan haddan tashqari ko‘p foydalanish oqibatida turli nutq nuqsolari hamda psixologik buzulishlar yuzaga kelmoqda.

Logopediya bu- nutq buzilishlari haqidagi maxsus ta‘lim va tarbiya vositasida nutq buzulishlarini o‘rganadigan, tuzatish va oldini olish haqidagi pedagogik fandır. Logopediya nutq faolyati buzulishining sabablari,mexanizimlari, alomatları, oqimları tarkibini o‘rganadi.Shuning uchun uni maxsus pedagogika sirasiga qo‘shadilar.

Logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o‘qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir.Logopediya fani optimizm va chuqur insonparvarlik bilan yo‘g‘rilgandır. U nutqida nuqsoni bor bolalarning shaxs sifatida har tomonlama rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib beradi.

Bola hayotining 3- yilga kelib ,nutqning Grammatik tomoni shakllana boshlaydi.Avval bola o‘z xoxish va itimoslarini bir so‘z bilan ifodalaydi keyinchalik 1-2 ta so‘zdan iborat sodda jumlar pay o bo‘la boshlaydi.Maktabgacha bo‘lgan davr(3 yoshdan 6 yoshgacha). Maktabgacha bo‘lgan davrda bolalar birinchi navbatda artikulatsion jixatdan oson talafuz etadigan: Lab-lab,lab-til undoshlari –p,b,m,f,e vaboshqalarni o‘rganadilar artikulatsion jihatdan talaffuz etish qiyin bo‘lgan: shivirlovchi,sirg‘aluvchi(s,z,sh,j,ch)va sonor(r,l),til orqa (k,g) tovushlarini talaffuzini egallashda qiynaladilar.Shuning uchun bolalar bu tovushlarni nutqda noto‘g‘ri qo‘llaydilar yoki talafuz etmaydilar.

3-7 yoshgacha bo‘lgan davrda bolalarda eshitish malakalari rivojlanib boradi ,bu esa bolaning o‘z talaffuzini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi.Ba‘zi xollarda bola o‘z kamchiligni to‘g‘irlyadi. Unda fonematik idrok shakllanib boradi.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Bu davrda lug'at boyligining o'sishi davom etadi .Bolaning 4-5yoshida uning aktiv lug'ati 3000-4000ta so'zgacha yetadi .Lug'at boyligi usib borishi bilan birgalikda nutqning Grammatik tomoni ham rivojlanib boradi.

Bola hayotining 4-yiliga kelib, ular o'z nutqida sodda va murkkab gaplarni qo'llay boshlaydilar. 5yoshgacha kelib esa , qo'shma gaplardan erkin foydalana oladilar. 5yoshli bolalar qo'shimcha savollarsiz hikoya va ertaklarni aytib berish qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bu davirda fonematik idrok sezgilari darajada rivojlanadi. Bola avval unli va undoshdoshlarni ,so'ng sonor, shovqunli hamda sirg'aluvchi tovushlarni ajrata boshlaydi.

Normada 4yoshli bola barcha tovushlarni ajrata olishi, unda fonematik idrok shakillangan bo'lishi lozim.

Hozirgi paytda maktabgacha yoshdagi bolalarning bazi birlarida turli nutq nuqsonlari mavjud bo'lib ,nutq nuqsonlarining eng ko'p uchraydigan turi bu-

Dislaliyadir.

Inson nutqi tovushlari muayyanahamiyatga egadir. 4-5 yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlar talffuzi til normadagi yaqinlashgan bo'ladi ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushni ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar,ayrim tovushlarni talaffuzida qo'llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar.

Bu xolatlar displiya termenibilan ataluvchi nutq buzilishiga yuzaga kelishiga sabab bo'ladi .Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib ,dis-buzilish, laliya- nutq degan manoni anglatadi.

Xulosa: Albatta maktabgacha yoshdagi bolalarni nutqlariga etiborli bo'lishimiz va ularning nutqida nuqson borligini payqasak maktabgacha bo'l gan davrdayoq ularni Logoped ko'rigidan o'tkazish nutqini korresiya qilish kerak bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Logopediya" M.Y.Ayupova .Toshkent .2007yil
2. "Umumiy pedagogika nazariyasi" Xoshimov.R.Munavvarov. — A.O'qituvchi nashriyoti.2010-yil